

Saydaxmedova Nigoraxon Sulaymonovna,

NamDU O'zbek adabiyotshunosligi kafedrası

katta o'qituvchisi, PhD

saydaxmedovanigoraxon@com

Tel: 94-343-86-68

MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARIDA SONLARNING POETIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada Muhammad Yusuf she'rlarida sonlarning ishlatilishi, sonlar bilan jummalarni ifodalash shoir niyatining asosiy kuchi, unsuri darajasiga ko'tarilgani, she'rlar matnida uning belgi-xususiyat ifodalovchi so'zlar oldidan kelib, jumla ma'nosini kuchaytirishga xizmat qilgani, bitta to'plamdagi sonlar konkardansini aniqlashga harakat qilganmiz.

Kalit so'zlar: son, bir, ikki, uch, qo'llanish chastotasi, syujet va qahramon, assonas, alliterasiya, tovushga taqlid.

ПОЭТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ЧИСЕЛ В СТИХАХ МУХАММАДА ЮСУФА

Сайдахмедова Нигорахон Сулаймоновна,

Старший преподаватель кафедры
узбекской литературы НамГУ, к.ф.н.

saydaxmedovanigoraxon@com

Tel: 94-343-86-68

Аннотация: В данной статье мы попытались определить использование чисел в стихотворениях Мухаммада Юсуфа, как выражение предложений с помощью чисел поднялось до уровня главной силы и элемента замысла поэта, как они предшествуют словам, выражающим характеристики в тексте стихотворений, и служат для усиления смысла предложения, а также согласованность чисел в одном сборнике.

Ключевые слова: число, один, два, три, частотность употребления, сюжет и персонаж, ассонанс, аллитерация, звукоподражание.

POETICAL PROPERTIES OF NUMBERS IN THE POEMS OF MUHAMMAD YUSUF

Saydakhmedova Nigorakhon Sulaymonovna,

Senior Lecturer, Department of
Uzbek Literature, NamSU, PhD

saydaxmedovanigoraxon@com

Tel: 94-343-86-68

Abstract: In this article, we have tried to determine the use of numbers in Muhammad Yusuf's poems, how expressing sentences with numbers has risen to the level of the main force and element of the poet's intention, how it comes before words expressing characteristics in the text of poems and serves to strengthen the meaning of the sentence, and the concordance of numbers in one collection.

Keywords: number, one, two, three, frequency of use, plot and character, assonance, alliteration, sound imitation.

Kirish

Muhammad Yusuf sheʼrlari matnida sonlarning faolligi bu turkum soʻzlarning turkiy tillar lugʻat tarkibida qadimdan mavjud ekanligini koʻrsatadi. Jumladan, shoirning “Xalq boʻl, elim” nomli kitobiga kiritilgan sheʼrlarga qaraganimizda birdan minggacha boʻlgan sonlarga duch kelindi. Ular ichida **bir** eng faoli boʻlib, 113 marta qoʻllangan. Ammo, qoʻllanish chastotasining bu qadar yuqori boʻlishiga qaramasdan uning matematik miqdorni anglatish sezilmas darajada kam. “Zamin uzra saf tortib **bir** kun, Biz ketarmiz qushlarday koʻchib”, (7) “**Bir** chivinch qanot boʻla olmas kimlar...”, (8) “Alqab meni kuzat, ilhaq meni kut, Ey **bir**, parcha bulut, ey **bir** parcha yoʻl” (9), “**Bir –bir**ini qoʻllagan el kam

bo‘lmagay” (10) misollarida ham unga aniq matematik vaqt birligi sifatida qarab bo‘lmaydi.

Adabiyotlar tahlili

Qo‘llanish chastotasi bilan bog‘liq ravishda bir so‘zining boshqa elementlar bilan birikuv imkoniyatlari ham va bundan kelib chiqadigan ma’no ottenkalari ko‘lami ham g‘oyatda keng. Ayniqsa, tovushlar takrori, ularni qavatlash, jarangli va jarangsiz undoshlarni almashtirib qo‘llash, yuqorida ta’kidlaganimizdek, shoir she’riyatiga o‘zgacha fayz, ohang va tarovat bag‘ishlagan¹. Ma’lumki, badiiy ifodaning asosiy qismi syujet va qahramon, uning bayoni asosiga quriladi. Ularning yuzaga kelishida qahramonlar qatnashadi. Bu qahramonlar gohida shoirning o‘zi qisqa syujetlar tarkibida vaqti-vaqti bilan o‘z so‘zlari bilan ham ishtirok etadi. Boshqacha aytganda, satrlararo bayon jarayonida shoir nutqi va qahramonlar nutqi ehtiyojga qarab almashinib turadi. Shu jihatdan shoir so‘ziga qaraymiz:

*Men netib shoir o‘lay,
Bir qalam o‘ynatmasam.
Jon qadar bir so‘z so‘rab,
Bir kalom she‘r aytmamam.
Dilni ming kuyga solib,
Jonni ming tebratmasam,
Maylimi, Muhammading
Tonggacha uxlatmasam?²(18)*

Natijalar va ularning tahlili

Sonlar bilan jummalarni ifodalash shoir niyatining asosiy kuchi, unsuri darajasiga ko‘tarilgan. Shu sababli birgina “bir” so‘z jumlasini 113 marta, ya’ni bir so‘zining deyarli uchdan bir qismi jumlar tarkibida qo‘llangan.

¹ Sobirov A. Muhammad Yusuf she’riyatining lingvopetik xususiyatlari. Maqola // O‘zbek tili va adabiyoti, 2024. №5 – B. 4.

² Мухаммад Юсуф. Халқ бўл, элим. – Тошкент, “Ўзбекистон” 2018, 206-б.

Bu soʻzning sheʼrlar matnida qoʻllanishdagi ikkinchi xususiyati uning belgi-xususiyat ifdalovchi soʻzlar oldidan kelib, uning maʼnosini kuchaytirishga xizmat qilganligidir: “Eshitgani kelaversin, Toʻy qilamiz dunyoda **bir**”, (21) “Bu dunyo Bukri **bir** jiyadaning shoxi”,(23) “Senga **bir** dil berdimmi, bas, Bu mehrim oʻlguncha boʻlar”.(25) Satrlar tarkibidagi *bir* olib tahslansa ham mazmunga putur yetmaydi, stilistik ottenka oʻzgaradi , xolos. Maʼnoni kuchaytirishga intilish baʼzan **bir** ni mubolagʻa qilish vositasiga aylantiradi:

Menga sening mehribon

*Har nigohing **bir** davlat.*

*Har lutfing **bir** inoyat,*

Har karaming – toj-u taxt. (37)

N.B. Lipatovanning taʼkidlashicha, sheʼriy misarlarda takrorning toʻrt koʻrinishi mavjud: 1. Assonas – matnning muayyan oʻrinlarida unli tovushlarning takrorlanib kelishi. 2. Alliterasiya- boʻgʻinlarda bir xil undosh tovushlarning takrorlanib kelinishi. 3. Tovushga taqlid – insonga xos boʻlmagan tovushlarning takrorlanib kelishi. 4. Rifma – tovush yoki tovushlar kompleksining oxirgi boʻgʻinlarda takrorlanishi³. Uning qoʻllanishidagi uchinchi xususiyat, agar bir soʻzi qatnashmasa, kutilgan maʼno kelib chiqmaydi: “**Bir** qoʻlida belanchak, **bir** qoʻlida qurʻon, **Bir** yelkada ketmon, **birida** iymon” satrlarida oʻzbek kishisi tasvirini berar ekan, **bir** soʻzini anafora usulida takrorlab qoʻllaydi va bu sheʼrga alohida ohangdoshlik bagʻishlaydi (38). “Chorlasa Siz qoʻrgʻon boʻling, tosh boʻling, Suyang **bir-biringiz**, yelkadosh boʻling. Qani kim botinib **bir** soʻz aytolgay, **Bitta** jon, **bitta** tan, **bitta** bosh boʻling” (41) bunday holatlarda nomaʼlumlik yoki umumiylik ottenkalar **bir** elementi orqali yuzaga chiqadi.

“Ne baxt besh yuz yildan beri, Boqiydir **bir** bobom sheʼri” (44), “Yashaylik **bir** oʻzbek boʻlib, **Bir** uzukka koʻzdek boʻlib” (45), “Toʻkilmasin sochingdagi **bitta** tolang, Omon boʻl sen, omon boʻlsin dasht-u dalang” (36), “Oʻzi ham bilmaydi qay **biri** mashhur: **Bir** oʻgʻli Yassaviy, **bir** oʻgʻli Temur”(39) , birinchi misradagi **bir** raqami boʻlmasa ham oʻzbek kitobxoni besh yuz yildan ortiq Navoiy

³ Липатова Н.Б. Павторы звуком (фонетическом) уровне в эрзянском и немецком языках: типологический аспект. КД. – Саранск. 2004. – С.71.

(**bir bobom**) sheʼrlarini oʻqiyotgani yaqqol sezilib tursa, keying sheʼrda tashbeh koʻrinmaydi, lekin soch tusi, tola orqali inson goʻzalligi nozik tarzda oʻxshatib berilgan. Yani, “sochingdagi bitta tola” deganda – soch tolasini hayot ipi, insonning qadri bir boʻlagi sifatida koʻrsatilib, senekdoxa yaratilishiga yoʻl bergan. Shuningdek mubolagʻa, ramz (majoz, timsol), tazod badiiy jihatdan misiralarni bezab ulgurgan. “**Bir** oʻgʻli Yassaviy, **bir** oʻgʻli Temur” bu oʻrinda **bir** soni miqdorni emas, tenglik va ketma-ketlikni bildiradi. Shuning uchun bu aniqlovchi vazifasida kelgan aniqlovchi son, lekin sanash emas, ajrtaish (farqlash) maʼnosida ishlatilgan. **Bir** oʻgʻli Yassaviy, **bir** oʻgʻli Temur” deganda parallel tuzilma yaʼni takrorlovchi sintaktik shakl ishlatilgan. Shu maʼnoda **bir**ning qoʻllanishi maqsadga muvofiq. Yoki “Sening suyanchigʻing ortingda bir xalq” shoir bunda “**bir**” soʻzi orqali tabiatdagi uygʻunlik va xalqning birligini bitta ritmik satrda birlashtirgan. Bu esa sheʼrga ohang, muvozanat va ramziy kuch bera olgan. **Bir** goʻsha suv boʻlsa, **bir** goʻsha qirlar satrlarda esa **bir** aniq son emas, aniqlovchi vazifasida ayrim, baʼzi, bir qismni ifodolovchi soʻz sifatida ishlatilgan.

Misralardagi 4 marta qoʻllangan songa eʼtibor qaratamiz:

Uch ogʻayni akam bor:

Birin oti – Jasorat,

Birin oti – Shijoat,

Birin oti – Matonat

“**Uch** ogʻayni” fazilatlarining ramzi hisoblanadi. **Bir** miqdor songa -in qoʻshimchasini qoʻshib tartib maʼnosini beruvchi *birinchi* soʻzining sheʼriy shakli *birin* yaratilgan. **Birin** soʻzi takroriy bogʻlovchi vazifasida kelib, ohangdorlik va ritmni kuchaytirgan.

Bir tomchisi – Adolat, **Bir** tomchisi – Sadoqat, **Bir** tomchisi – Saodat. Qolganlari – rivoyat... “**Bir tomchisi**” anfora takrori orqali ohangdorlik va musiqiy uygʻunlik yaratilib, hayot dengizi adolat, sadoqat, va saodat kabi “tomchilardan” iborat, bu yerda har bir tomchi – insonning ruhiy goʻzalligi va pokligi ramzidir.

Bir soʻzining qoʻllanilishidagi bu holatlar uning miqdor anglatish doirasidan alla qachon chiqib, modal maʼno, subyektiv munosabatni ifodalovchi muhim unsurga aylanganida, maʼno ifodalashning navbatdagi yoʻnalishida mustaqillikdan yordamchilikka – yuklamalik vazifasini bajarishga oʻtganligidan dalolat beradi. Juda qadimgi davrlarda mavjud zohiriy duno **bir** raqamidan paydo boʻlgan, u ruhni aks ettiradi va aql, yaxshilik, birlik va baxt timsolidir, deb hisoblanilgan. ⁴

Natijalar: Sharq shoirlari poetik maʼno va mantiq talablariga asoslanib raqamlarga murojaat qilinganda, bevosita u yoki bu raqam “chegara”sida anʼanaviylashgan haqiqatlarni ham inobatga olganlar. Buni ikki raqamidan foydalanishda ham kuzatish mumkin. Dunyo va oxirat xususidagi fikr-mulohazlar asosan “ikki dunyo”, “ikki jahon” iboralari vositasida ifodalangan va ular koʻpincha tazodiy xarakter kasb etgan.⁵ Jumladan: “Tuzing totib, ununtganlar xor boʻladi, Koʻzlariga **ikki dunyo** tor boʻladi ”. Shoir sheʼrlarida **ikki** oʻzining **ikkinchi, ikkita, ikkov** kabi koʻrinishlari bilan birgalikda semantik-stilistik imkoniyatlarini birmuncha keng ravishda namoyish eta olgan. Birinchi navbatda albatta matematik vaqt birligi sifatida: “**Ikki ming** yil avval Sagʻbonin izlab, Hindistonni tashlab kelgan qumrilar” 1530-yilga kitobxonni eltadi. Eng koʻp holda esa **ikki** frazeologik birliklar tarkibida kuzatiladi: “Vatan desa **ikki qoʻllab jonin tutgan** Fidoiylar kerak bizga, fidoiylar”, “Boʻlsa bir koʻksida yoʻl, Bir bolang yoʻlbars yurak. Qaddi qoshingda choʻkib, Togʻ boʻlur **ikki boʻlak**”, “Oʻgʻlim, desa **ikki qoʻllab jonimni tutib**, Sigʻinaman va sof Oʻzbekistonga”, taʼkidlash ottenkasi: “Bu yoʻl hijron, Bu yoʻl hijron, - yoʻl hijron, **Ikki beti** chinorlardan baland dorlar”. Xalq orasidagi iboralarga shoirona yondashgan: “**Ikki koʻzim elimdadir**, Choʻgʻdek soʻzim tilimdadir”, “Qoldim **ikki oʻt aro** – Goʻshangada dildorim” kabi.

⁴ Бородин А.И. Число и мистика. Донецк, 1975.С. 110.

⁵ Жумаева С. Ўзбек мумтоз шеъриятида рақам рамзлари. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти, – Тошкент, 2010 – Б .12.

Masalan mumtoz shoirlar ijodida uchlikka bo'lgan munosabatlar keying davr shoirlari nazaridan ham chetta qolmagan.⁶ Uch raqamiga qaraganda to'rt raqami xalqimiz ijtimoiy qarashlari, an'analari va kundalik turmushida ancha keng qo'llanilgan. "Menga yering suyuq, Osmoning suyuq Boqsam teng To'rtala Tomoning suyuq", "Boringni qo'y – **To'rtta** o'zbek to'plansa to'y", dunyo xalqlari mifologiyasida olamning tuzilishi, uning to'rt tomoni mavjudligi, bir oy to'rt haftadan, bir yil to'rt fasldan iboratligi, Oynning har oyda o'z tusini to'rt marta almashtirib turishi kabi holatlar bu raqamning an'anaviylashishiga sabab bo'lgan. Mumtoz shoirlarimiz samoviy olam, jumladan, yeti yoki to'qqiz ko'k xususida so'z yuritganda hamma payt ham jismoniy mavjudlikni emas, balki insonga nisbatan berilgan ramz va majoz orqali komil inson mohiyatini yoritishga qaratilgan fikr-mulohazalarga ham diqqatni jalb etishgan.⁷ "Temurning jilmaygani **o'ttiz** elda tantana", **Yeti** iqlimni kezib, Rizq to'kib abad-azal "(17), "Dilni **ming** kuyga solib, Jonni **ming** tebratmasam", Shoir ijodini o'rgangan sayin undagi ajoyibot topilmalarni ilg'ab hayron qolamiz, har jumla, har so'z zamiridagi yashirin ma'nolarni o'qib shoir mahoratiga tahsin o'qiymiz. She'rlarda birdan boshlab 3,4,5,6,7,...10...30...40...100...500...1000... 2000 va besh asrgacha bo'lgan ulkan raqamlarni ham ko'rishimiz mumkin. "Ko'z ochgandan kezib **yetti** bahri ummon, **Yeti** tilda so'zlashgan biz tili biyron" (30), "O'zini o'ylamay-o'ylab, Farzandini yurgan sizlab. **O'nga** kirgan bolasiga Sarpo yiqqan Qalliq izlab" (37), "**O'nta** bo'lsa o'rni boshqa uning-chun – O'g'lim otashimdan yaralgan uchqun" (48), "**Qiriy** yil qirg'in bo'lsa ham O'z ahdida turolgan"(29), O'ttiz raqamiiga e'tiqod qo'yishning sabalaridan turkiy xalqlar tarixi bilan bog'liq. "To'yda – "**O'ttiz** yashar chollar, Yigirmada kampirlar ham." (24), "Yurt yo'llasa tulporlari qir oshgan, **O'ttiz** o'lka atrofida birlashgan" (34). Raqamlarning haqiqatlari bilan qiziqish, ularning ramziy-ma'johiy ma'nolarini she'rda ifodalash tajribasi ham ilimsiz amalga oshmagan, albatta. Raqamga tayanib ishqiy holat, kayfiyat yoki haqiqatlarni o'ziga xos rang

⁶ Ko'rsatilgan manba., XIX asr oxirlarida ma'rifatparvar shoir Furkat ijodida uch raqami bilan bog'liq bir ajoyib asar yaratilgan. "Furkat lirikasining shox asari" deb baholangan "Uch harobotiy" tarjima-band-musaddasning un ikki bandida "uch" raqami etakchilik kilib, unda uchta hamdard dust haqida suz boraди. – B. 27.

⁷ Жумаева С. Ўзбек мумтоз шеъриятида рақам рамзлари. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси "Фан" нашриёти. – Тошкент, 2010 – Б. 37.

va manzaralari bilan gavdalanitirib berishda ham talmeh, tazod, mubolag‘a, ruju kabi o‘nlab badiiy san’atlardan unumli foydalanilgan. Jumladan: Momolari tetik **yuzga** kirsam ham, Bobolari qaysi yigitlardan kam” (mubolag‘a, talmeh, tazod). Bir-biriga zid tushunchalarni ifoda etishda birikma shaklida keltirilgan yuz, bir va ming, bir yuz va ming raqamlariga murojaat qilingan. Bunday ifodalarda bir raqami yakka, tanxolik, yashashlik va kamlik ma’nolarida: yuz, ming, yuz ming raqamlari esa ancha ko‘p, xadsiz, hisobsiz ma’nolarida ishlatilgan.⁸ “Ne baxt, **bash yuz** yildan beri, Boqiydir bir bobom she‘ri” (48), “Boq bu falak ishlariga o‘nglanib: Kimlar o‘tar bir joni **ming** to‘g‘ralib ” (54).

Xulosa

Shoir yaratgan misralar qatida uchraydigan sonlar, ularning qo‘llanishi haqida ko‘p kuzatish, tahlillar qilishga imkon beradi, sababi ular aniq bir miqdorni ifodalashdan ko‘ra, ma’lum bir narsa-hodisaning ko‘pligi, ozligi, ba’zan me’yoridan ortiqchiligiga ishora va she’rning jozibasi o‘laroq, badiiy san’atlar vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Shoirning sonlarga bu qadar murojaati diniy, tarixiy, falsafiy bilimlar sohibi ekaniga shubha qoldirmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sobirov A. Muhammad Yusuf she’riyatining lingvopetik xususiyatlari. Maqola // O‘zbek tili va adabiyoti, 2024. №5 – B. 4.
2. Мухаммад Юсуф. Халқ бўл, элим. – Тошкент, “Ўзбекистон” 2018, 206-б.
3. Липатова Н.Б. Павторы звуком (фонетическом) уровне в эрзянском и немецком языках: типологический аспект. КД. – Саранск. 2004. – С.71.
4. Бородин А.И. Число и мистика. Донецк, 1975.С. 110.
5. Жумаева С. Ўзбек мумтоз шеърларида рақам рамзлари. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти, – Тошкент, 2010 – Б. 12.

⁸ Ko‘rsatilgan man‘ba. – B. 93.